



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi**  
**Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistlarini**  
**tanlab olish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi 290-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida o‘quv jarayonini metodik jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida **buyuraman:**

1. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarini malakali kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida joriy yilning mart-aprel oylari davomida nomzodlar orasida tanlov tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarini malakali, mas‘uliyatli va tashabbuskor kadrlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tanlov komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish bo‘yicha vaqtincha tartib 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov) Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistligi lavozimiga nomzodlarning hujjatlarini maxsus platforma orqali qabul qilish jarayonlarini tashkil etish choralari ko‘rsin.

4. Tanlov komissiyasi (U.Begimkulov):

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistlarini tanlab olish jarayonini muvofiqlashtirib borish bo‘yicha Respublika ta‘lim markazida tashkil etiladigan shtab ishlarini muvofiqlashtirib borish;

tanlov jarayonlarining har bir bosqichini o‘tkazish muddatlari bo‘yicha talabgorlarni o‘z vaqtida xabardor qilib borish;

**ikki oy muddatda** Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlariga Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistlari lavozimlariga nomzodlarni ikki bosqichda (*fani bo‘yicha test va suhbat*) tanlab olish;

tanlov natijalari yuzasidan Tanlov komissiyasining bayonini rasmiylashtirish va rahbariyatga taklif kiritish;

Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) bilan birgalikda **uch kun muddatda** Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i va har bir fan bo'yicha fan metodistlari lavozimiga ishga qabul qilish va natijalari bo'yicha e'lon berish vazifalari yuklatilsin.

5. Respublika ta'lim markazi (Sh.Sattarov) Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlariga bo'lim boshlig'i va fan metodistlarini tanlab olish jarayonini muvofiqlashtirib borish bo'yicha shtab tashkil etsin va jarayon bilan bog'liq vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarsin.

6. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov)ga Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlariga bo'lim boshlig'i va fan metodisti lavozimlariga hujjat topshirgan nomzodlarni o'zining fani va yo'nalishidan kelib chiqqan holda onlayn test jarayonlarini sifatli tashkil etish vazifasi topshirilsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi faoliyatini muntazam ravishda muvofiqlashtirish;

Respublika ta'lim markazining tavsiyalari asosida Metodik xizmat ko'rsatish bo'limidagi fan metodistlarining samarali faoliyat olib borishlari uchun sharoitlar yaratish;

monitoring natijalariga ko'ra ta'lim sifati yuqori bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim maktablariga fanlar kesimida metodik yordam ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining fan metodistlariga ajratilgan texnika vositalarini (*kompyuter, skaner, printer*) ehtiyojni o'rgangan holda Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari balansiga o'rnatilgan tartibda o'tkazish va Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i va fan metodistlariga ish jarayonida foydalanish uchun berilishini tashkil etish;

tajribali fan o'qituvchilari, shuningdek, shtati qisqartirilayotgan fan metodistlari uchun Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i va fan metodisti lavozimlariga salohiyatli nomzodlarni tanlash maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari rahbarlariga:

talabgorlarni tanlovda ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar yaratish (*xona, kompyuter texnikasi, internet va boshqa*);

yangidan ish boshlaydigan Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi fan metodistlarini o'zining yo'nalishi bo'yicha (*filologiya, xorijiy tillar, ijtimoiy, aniq, amaliy, tabiiy va iqtisodiy fanlar*) xonalarga joylashtirish, ularga sharoitlar (*internet, telefon aloqasi, stol, stul, shkaf va boshqa*) yaratish vazifalari topshirilsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil 15-mart,  
61-son

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi  
vazirining 2023-yil 15-martdagi  
61-sonli buyrug'iga  
1-ILOVA

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi  
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlarini malakali, mas'uliyatli va tashabbuskor  
kadrlar bilan to'ldirish bo'yicha  
tanlov komissiyasi tarkibi**

<b>T/r</b>	<b>F.I.SH.</b>	<b>Lavozimi</b>
1	U.Sh.Begimkulov	Vazir o'rinbosari, komissiya raisi
2	D.A.Norboyeva	O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig'i, komissiya raisining o'rinbosari
3	Z.F.Togayeva	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo
4	N.Sh.Kuchkarova	Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo
5	D.Ermatov	Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo
6	A.A.Nasirov	O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, kotib;
7	S.A.Kazakova	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, a'zo
8	Sh.Sh.Sattarov	Respublika ta'lim markazi direktori, a'zo
9	D.T.Davidova	Pedagogik mahorat va xalvaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori, a'zo
10	M.D.Pardayeva	Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti prorektori, a'zo
11	M.N.Xoldorov	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bo'lim boshlig'i, a'zo
12	G.Tog'ayeva	Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi bosh mutaxassisi, a'zo
13	Lavozimi bo'yicha	Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining maktab ta'limi bo'yicha o'rinbosari
14	Lavozimi bo'yicha	Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktorlari
15	Lavozimi bo'yicha	Respublika ta'lim markazi fan metodistlari (yo'nalishi bo'yicha)
16	Lavozimi bo'yicha	Prezident maktabi direktorlari

**Apellyatsiya komissiyasi tarkibi**

<b>T/r</b>	<b>F.I.SH.</b>	<b>Lavozimi</b>
1	D.Kenjaye	Vazir o'rinbosari, apellyatsiya komissiyasi raisi
2	J.Shamshiyev	Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat boshqarmasi boshlig'i, a'zo
3	A.Radjiyev	Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti rektori
4	F.Urunov	O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, kotib
5	A.Baxromov	A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti prorektori, a'zo
6	A.Ortikov	Respublika ta'lim markazi direktor o'rinbosari, a'zo

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik  
xizmat ko‘rsatish bo‘limlariga kadrlarni tanlov asosida ishga  
qabul qilish bo‘yicha vaqtincha  
TARTIB**

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qaroriga asosan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) tizimidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi (keyingi o‘rinlarda - Milliy markaz) Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimiga tanlov o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Tanlov Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga metodika yo‘nalishida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, bu borada keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishida bevosita ko‘makchi bo‘lishga qodir, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, tashabbuskor, keng dunyoqarash hamda yuqori ilmiy salohiyatga, chuqur kasbiy bilimga, xalqaro tajribalardan xabardor, yuksak axloqiy va ma’naviy fazilatlariga ega, ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda zamonaviy metodikalarni o‘qituvchilarga etkazib bera oladigan ilg‘or fan metodistlari va bo‘lim boshliqlarini saralab olish maqsadida o‘tkaziladi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Tartib Vazirlik tizimidagi Milliy markazning Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarida bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimiga nomzodlar tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Tanlov yangidan tashkil etilayotgan har bir fan bo‘yicha fan metodisti va bo‘lim boshlig‘i lavozimlariga e‘lon qilinadi.

3. Tanlov mazkur Tartibga asosan tuziladigan Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining fan metodisti va bo‘lim boshlig‘i lavozimiga nomzodlarni tanlab olish bo‘yicha Tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Tanlov komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.

4. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimi uchun o‘tkaziladigan tanlovda besh yildan kam bo‘lmagan

pedagogik ish stajga hamda fan yoʻnalishiga toʻgʻri keluvchi bakalavr darajasidagi oliy pedagogik maʼlumotga ega boʻlgan mutaxassislar ishtirok etadi.

5. Nomzodlar tegishli hujjatlarini maxsus platforma orqali topshirgan holda ishtirok etadi.

6. Sud hukmi va tibbiy xizmat xulosasiga koʻra pedagogik faoliyat bilan shugʻullanishi man etilgan, muomalaga layoqatsiz (muomala layoqati cheklangan), tibbiyot muassasalarida muayyan toifadagi kasalliklar boʻyicha roʻyxatda turgan shaxslar tanlovga qoʻyilmaydi.

## **2-bob. Tanlov oʻtkazishning asosiy vazifalari**

7. Metodik xizmat koʻrsatish boʻlimlarini yuqori malakali metodistlar bilan taʼminlash.

8. Boʻlim boshligʻi va fan metodisti lavozimiga munosib nomzodlarni tanlab olish hamda ularning potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanishdan iborat.

## **3-bob. Tanlov oʻtkazishni tashkil etish**

9. Tanlov ochiq boʻlib, tenglik, shaffoflik, qonuniylik va adolat tamoyillari asosida oʻtkaziladi.

Milliy markazlar oʻtkazilayotgan tanlovning tashkilotchisi hisoblanadi.

10. Tanlov komissiyasi faoliyatiga koʻmaklashish maqsadida uning faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan, nomzodlarning mehnat faoliyatiga oid hujjatlar jamlanmasini oʻrganish va baholash boʻyicha Respublika taʼlim markazida shtab tashkil etiladi.

11. Tanlov jarayonlari oʻtkazilayotgan joyda tanlov komissiyasi vakillari va nomzoddan tashqari begona shaxslarning ishtirok etishlariga ruxsat berilmaydi.

12. Vazirlikning Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi nomzodlarga qoʻyiladigan malaka va boshqa talablar aks ettirilgan boʻsh ish oʻrinlariga tanlov oʻtkazilishi haqida eʼlon beradi. Milliy markazlar oʻzining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali eʼlon joylashtiradi.

Tanlov oʻtkazish toʻgʻrisidagi eʼlonda quyidagilar koʻrsatilishi lozim:

tanlov oʻtkazilayotgan lavozim;

tanlovda ishtirok etuvchilarga qoʻyiladigan talablar;

tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar roʻyxati va ularni qabul qilishning oxirgi sanasi;

Call markazi (call-centre) bilan bogʻlanish uchun telefon raqami;

vab-sayt havolasi.

Tanlovga hujjatlarni topshirish vazirlikning ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalarida e'lon joylashtirilgan kundan boshlab tashkil etiladi.

13. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzodlarning hujjatlari e'lon qilingan kundan boshlab 10 kun davomida maxsus platforma orqali qabul qilinadi.

14. Tanlovda ishtirok etish uchun ish.uzedu.uz saytiga talabgor quyidagi hujjatlarini yuboradi;

nomzodning shaxsiy varaqasi (ma'lumotnoma-obyektivka);

hujjat topshirayotgan yo'nalishiga mos keluvchi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom;

sohasi bo'yicha berilgan malaka toifalar haqidagi tasdiqlovchi hujjatlar; (agar mavjud bo'lsa).

15. Nomzodlarning hujjatlari Respublika ta'lim markazida tashkil etilgan shtab tomonidan o'rganib chiqiladi.

O'rganish natijalariga ko'ra, malaka talablariga mos kelgan nomzodlar test sinovlarida ishtirok etadilar.

16. Nomzod tomonidan ushbu Tartibga mos kelmaydigan yoki qalbaki hujjatlar taqdim etilgan taqdirda nomzodning ishga qabul qilish bo'yicha sinovda ishtirok etishi rad etiladi.

17. Tanlovga hujjatlarni qabul qilish muddati tugaganda har bir lavozim uchun tanlovda ishtirok etishga hujjatlarni topshirgan nomzodlarning soni 2 nafardan oshmasa tanlov o'tkazilmaydi va tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon qaytadan beriladi.

#### **4-bob. Tanlovni o'tkazish**

18. **Test sinovi bosqichida** - nomzodlarning mutaxassisligi bo'yicha bilimi test sinovlari orqali aniqlanadi.

19. Test sinovlari Internet jahon axborot tarmog'iga ulangan kompyuter texnikasi bilan jihozlangan joylarda onlayn tarzda o'tkaziladi;

20. Test sinovlarini o'tkazish muddati ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilinadi. Test sinovlari Vazirlik tomonidan o'tkaziladi.

21. Test savollari ko'p variantlilik asosida, har biri **40 ta** savoldan hamda har bir savol **4 ta** ("A", "B", "D", "E") javobdan iborat bo'ladi.

Fan metodistlari uchun test savollari o'zining fani bo'yicha tuziladi. Test savollari va ularning javoblari Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentida saqlanadi va ularning oshkora qilinmasligi uchun mas'ul hisoblanadi.

22. Nomzodlarga test savollariga javob berish uchun **120 daqiqa** vaqt beriladi. Har bir to'g'ri bajarilgan test savoli **2,5 ball** bilan baholanadi. Test sinovlari uchun maksimal **100 ball** beriladi.



23. Test sinovlari natijalariga ko‘ra 56 va undan yuqori ball to‘plagan nomzodlarga tanlovning ikkinchi bosqichida ishtirok etishga ruxsat beriladi. Test sinovida to‘plagan ballar ikkinchi bosqich natijalariga ta’sir qilmaydi.

24. Test jarayonida nomzodlarga quyidagilar taqiqlanadi:

qonun hujjatlaridan, ma’lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi texnika vositalaridan yoki boshqa materiallardan (ma’lumotlardan) foydalanish;

boshqa shaxslar bilan suhbatlashish;

ekranda test javobi aks etgunga qadar test savollari o‘tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqish.

Mazkur talablarga rioya qilmagan nomzod test jarayonini o‘tkazish tartibini buzgan deb topiladi va uni tanlovda qatnashishdan chetlashtirish uchun asos bo‘ladi. Ushbu holatda tegishli tartibda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

25. Test sinovlari natijalarini talabgorlar test yakuni bo‘yicha o‘sha vaqtning o‘zida kompyuter ekranida ko‘radi.

26. Test sinovlari natijasi sinov uchun belgilangan vaqt tugagunga qadar yoki tugashi bilan sinov kuzatuvchisi tomonidan maxsus qaydnomada yozma ravishda belgilanadi va talabgor o‘z test natijasi yoniga imzo qo‘yib, natija haqqoniyligini tasdiqlaydi.

27. Suhbat jarayoni tanlov komissiyasi tomonidan fanga doir yangiliklar, ta’lim tizimidagi islohotlar va pedagogikaga oid savol-javob shaklida o‘tkaziladi.

28. Talabgor vakant lavozim bo‘yicha o‘zining rejalarini tushuntirib beradi. Bunda, metodik xizmatni takomillashtirishga doir tashabbuskor g‘oyalar va innovatsion takliflar alohida inobatga olinadi.

29. Fan metodistlari uchun suhbat jarayoni o‘zining fani, ushbu fanni o‘qitish metodikasi va ta’limga oid mavzular asosida savol-javob shaklida o‘tkaziladi.

Bo‘lim boshlig‘i uchun suhbat jarayoni ta’lim sohasidagi islohotlar, metodik xizmat ko‘rsatishga oid savol-javob shaklida o‘tkaziladi.

30. Suhbat natijalari suhbat yakunlangandan so‘ng shu kunning o‘zida nomzodlarga e’lon qilinadi.

31. Tanlov natijalari Tanlov komissiyasi bayoni bilan rasmiylashtiriladi.

32. Tanlovga kelmagan nomzodlar ishtirok etmagan deb hisoblanadi.

33. Tanlov komissiyasi tomonidan suhbat natijalariga asoslanib, ovozga qo‘yilgan holda quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

**“Tanlovdan o‘tdi**, fan metodisti yoki bo‘lim boshlig‘i lavozimiga mos keladi”;

**“Tanlovdan o‘tmadi**, fan metodisti yoki bo‘lim boshlig‘i lavozimiga mos kelmaydi”.

34. Komissiya qarorlari uning majlisida komissiya a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

35. Qaror tanlov bo'yicha yig'ma jildga tikib qo'yiladi.

36. Tanlov natijasidan norozi bo'lgan nomzodlar belgilangan tartibda murojaat qilishi mumkin.

37. Tanlovning barcha bosqichlari video tasvirga olinadi.

## **5-bob. Lavoziimga tayinlash**

38. Komissiya qarori bir nusxada tuziladi. Komissiyaning tanlov yakunlari bo'yicha qabul qilgan qarori tanlovda g'olib deb topilgan talabgor bilan mehnat shartnomasini tuzish uchun asos bo'ladi va tanlovdan so'ng g'olib talabgorni fan metodisti va bo'lim boshlig'i lavozimiga tayinlash bo'yicha Milliy markaz direktorining buyrug'i qabul qilinadi.

## **6-bob. Tanlov natijalari yuzasidan shikoyat qilish**

39. Tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan nomzodlar tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab uch kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda ariza (shikoyat) bilan murojaat qilishlari mumkin.

40. Apellyatsiya komissiyasi yig'ilishi komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

41. Nomzodlarning shikoyatlari ro'yxatga olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida ularning ishtirokida ko'rib chiqiladi.

42. Apellyatsiya komissiyasi Vazirlik tomonidan tuzilgan tanlov komissiyasining qarorini o'zgartirishsiz qoldirish yoki uni bekor qilish haqida qaror chiqaradi.

## **7-bob. Yakuniy qoidalar**

43. Tanlov komissiyasi yoki apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

44. Mazkur tartibda aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

45. Nomzodlarning tanlovdan o'tkazish bilan bog'liq mehnat nizolari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

46. Mazkur Tartib, Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi rahbar va fan metodistlarining dastlabki faoliyatini yo'lga qo'yilgunga qadar amalga oshirilib, keyingi tayinlash jarayonlari amaldagi qonunchilik asosida belgilanadi.

47. Ushbu Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.